

O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOT

Qodirov Farrux

Shahrisabz davlat pedagogika instituti "Informatika va uni o'qitish metodikasi"
kafedrasi mudiri

Murodulloyeva Jasmina Najim qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

"Matematika va informatika" yo'nalishi 2- bosqich talabasi

jmurodulloyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14511640>

Annotatsiya: Ushbu maqola statistika faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanish mavzusiga bag'ishlanadi. Maqolada statistik ma'lumotlarning o'ziga xos jihatlari, mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish tendensiyalari, shuningdek statistika tizimida "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasining asosan amalga oshirilgan va amaliyotga joriy etilgan loyihalar kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Raqamli iqtisodiyot dunyo miqyosida global iqtisodiyotni shakllantiruvchi asosiy omillardan biriga aylanib bormoqda. Informatson texnologiyalar va raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning turli sohalarida inqilobiy o'zgarishlar olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi ham raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yo'lida qator islohotlarni amalga oshirib, bu yo'nalishda jadal qadamlar tashlamoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning ahamiyati, rivojlanish tendensiyalari, mavjud imkoniyatlar va yechimini kutayotgan muammolar tahlil qilinadi.

Tayanch so'zlar: elektron tijorat(e-commerce), sun'iy intellekt(AI), YAIDXP, elektron raqamli imzo(ERI), IT, elektron hukumat(e-government), raqamli O'zbekiston-2030, raqamli iqtisodiyot.

Аннотация: Данная статья будет посвящена теме использования цифровых технологий в статистической деятельности. В статье рассматриваются такие вопросы, как специфика статистических данных, тенденции развития цифровой экономики в нашей стране, а также проекты стратегии "цифровой Узбекистан-2030", в основном реализованные и внедренные в практику в системе статистики. Цифровая экономика становится одним из ключевых факторов, формирующих мировую экономику во всем мире. Информационные технологии и процессы цифровизации приводят к революционным изменениям в различных секторах экономики. Республика Узбекистан также предпринимает быстрые шаги в этом направлении, проводя ряд реформ на пути развития цифровой экономики. В данной статье анализируется значение цифровой экономики в Узбекистане, тенденции ее развития, имеющиеся возможности и проблемы, ожидающие решения.

Ключевы слова: электронная коммерция(e-commerce), искусственный интеллект(AI), YAIDXP, электронная цифровая подпись ('i), IT, электронное правительство(e-government), цифровой Узбекистан-2030, цифровая экономика.

Annotation: This article will focus on the topic of the use of digital technologies in statistical activities. The article covers such issues as the specifics of Statistics, Trends in the development of the digital economy in our country, as well as projects implemented and put into practice mainly by the strategy of "digital Uzbekistan-2030" in the statistical system. The digital economy is becoming one of the main factors that shape the global economy on a global scale. Informative technologies and digitization processes are bringing revolutionary changes in various sectors of the economy. The Republic of Uzbekistan is also making a number of

reforms towards the development of the digital economy, taking rapid steps in this direction. This article will analyze the importance of the digital economy in Uzbekistan, development trends, available opportunities and problems waiting for a solution.

Keywords: e-commerce(e-commerce),artificial intelligence(AI),YAIDXP, electronic digital signature(ERI),it, e-Government (e-government),Digital Uzbekistan-2030,digital economy.

So'nggi yillarda O'zbekiston raqamli iqtisodiyot sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Elektron tijoratning jadal rivojlanishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, AKT infratuzilmasining kengayishi va xalqaro hamkorliklar raqamli iqtisodiyotning jadal sur'atlarda rivojlanishiga yordam bermogda.

Raqamli iqtisodiyot-bu raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari va internet asosida shakllangan iqtisodiy faoliyatdir. Raqamli iqtisodiyotning asosiy omillari:

Elektron tijorat(e-commerce)-tovar va xizmatlarni onlayn tarzda sotish va sotib olish jarayonlari.

Raqamli xizmatlar-moliyaviy texnologiyalar (fintech), ta'lim, sog'liqni saqlash va boshqa sohalarda raqamlashtirilgan xizmatlar.

Big Data va Sun'iy intellekt(AI)-katta ma'lumotlar yordamida iqtisodiy jarayonlarni optimallashtirish va samaradorlikni oshirish.

Bulutli texnologiyalar-korxonalar va tashkilotlar uchun axborotlarni xavfsiz saqlash va ularga masofadan kirish imkoniyatlari.

O'zbekiston hukumati raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishni milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. 2020-yil qabul qilingan "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi mamlakatda raqamlashtirish jarayonlarini tezlashtirish va turli sohalarda raqamli texnologiyalarni joriy etish maqsadida ishlab chiqilgan. Ushbu dasturning asosiy maqsadi bu elektron hukumat tizimini joriy etish orqali davlat xizmatlarini onlayn rejimga o'tkazish va fuqarolar hamda tadbirkorlar uchun qulayliklar yaratish. Shuningdek ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar yordamida samaradorlikni oshirish. Raqamli infratuzilmasini rivojlantirish ya'ni internet tarmoqlarining kengaytirilishi, mobile aloqa va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT)joriy etilishi va raqamli iqtisodiyot uchun malakali mutaxassislar tayyorlash va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar yetishtirish raqamli iqtisodiyotning oldidagi muhim maqsadlar O'zbekiston uchun raqamli iqtisodiyot bir nechta muhim afzalliklarni taqdim etadi ya'ni raqamli texnologiyalarni keng joriy etish ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, yangi bozorlar ochilishiga va investitsiyalar jalb qilinishiga yordam beradi. Tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida elektron tijorat va raqamli xizmatlar orqali tadbirkorlar o'z bizneslarini global miqyosda kengaytirish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar. Bunga misol sifatida O'zbekistonda elektron to'lov tizimlarining rivojlanishi va xalqaro platformalarga kirish imkoniyatlarining kengayganini ko'rsatib o'tish mumkin. Korrupsiyaga qarshi kurashishda Davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish va bu orqali korrupsiya xavfini sezilarli darajada pasaytirish mumkin.Shu bilan birga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda bir qator muammolar ham yuzaga kelgan bulardan infratuzilmasi yetishmovchiligi ya'ni aholining barcha qismi internet va zamonaviy texnologiyalarga teng kirish imkoniga ega emas. Kadrlar yetishmasligi raqamli iqtisodiyot uchun zarur bo'lgan

yuqori malakali AKT mutaxassislarning yetishmasligi raqamli transformatsiyani sekinlashtirish mumkin.

O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot rivoji milliy iqtisodiyotning barqaror va jadal o'sishi uchun zarur bo'lgan omillardan biridir. Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashga ham yordam beradi. Biroq bu jarayon muvaffaqiyatli kechishi uchun mavjud muammolarni bartaraf etish va raqamli infratuzilmani kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ko'rilishi zarur. "Raqamli O'zbekiston-2030" dasturining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi mamlakatni raqamli iqtisodiyotning global salohiyatli ishtirokchisiga aylantirishi mumkin. Raqamli iqtisodiyot-bu nafaqat iqtisodiy model, balki rivojlanishning yangi davridir.

"Raqamli O'zbekiston-2030" dasturi mamlakatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishga qaratilgan keng ko'lamli strategik hujjat bo'lib, uning muvaffaqiyatini o'lchash uchun bir qator mezonlar mavjud. Ushbu mezonlar dastur doirasida amalga oshirilgan islohotlarning natijadorligini tahlil qilish va baholash imkonini beradi. Ushbu dasturning bosh maqsadi davlat boshqarilishi va xizmatlarining raqamlashtirilishi: elektron hukumat tizimi orqali davlat xizmatlarini to'liq raqamlashtirish. Bu orqali fuqarolar va tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish jarayonlari soddalashtiriladi hamda raqamli infratuzilma rivojini oshirish bunda internet qamrovi va tezligini oshirilishi. Raqamli iqtisodiyotning asosiy ustunlaridan biri bu malakali kadrlarning mavjudligi. O'zbekistonda raqamli savodxonlik darajasini oshirish va AKT sohasida kadrlar tayyorlash bo'yicha qator dasturlar amalga oshirilmoqda.

So'nggi yillarda O'zbekiston raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda xalqaro hamkorlikni kuchaytirdi. O'zbekiston Huawei, Microsoft, IBM, Google kabi xalqaro texnologiya kompaniyalari bilan hamkorlik o'rnatib, AKT infratuzilmasini rivojlantirish yo'lida qator loyihalar amalga oshirilmoqda. Bu kompaniyalar bilan hamkorlik O'zbekistonda raqamli texnologiyalarni joriy etish va yangi innovatsion yechimlarni taqdim etishga yordam bermoqda. O'zbekistonda elektron hukumat sohasidagi rivojlanishlar mamlakatning raqamli iqtisodiyotiga muhim hissa qo'shmoqda. Davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, elektron identifikatsiya tizimlarining kengayishi, mobil platformalar va xalqaro hamkorlik mamlakatning raqamli infratuzilmasini kuchaytirish va fuqarolar uchun qulaylik yaratish yo'nalishida katta ahamiyatga ega. Elektron hukumat tizimining to'laqonli shakllanishi O'zbekistonda davlat boshqaruvi, iqtisodiy faoliyat va jamiyatdagi shaffoflikni oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Raqamli infratuzilmaning kengayishi, davlat xizmatlarining raqamlashtirilishi, raqamli iqtisodiyotning YaIMdagi ulushining oshishi, malakali kadrlar tayyorlash, xalqaro integratsiya va xavfsizlik kabi ko'rsatkichlar ushbu dastur doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning qanchalik samarali ekanligini ko'rsatadi. Muvaffaqiyatli amalga oshirilgan taqdirda, O'zbekiston global raqamli iqtisodiyotning faol ishtirokchisiga aylanishi mumkin va bu mamlakatning iqtisodiy o'sishi va ijtimoiy farovonligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. O'zbekistonda raqamlashtirish jarayoni nafaqat iqtisodiy taraqqiyot va samaradorlikni oshirishga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishi va axborotga kirish imkoniyatlarini kengaytirishga ham xizmat qiladi, bu esa kelajak avlodlar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi va mamlakatimizni global raqobatda mustahkam o'ringa olib chiqadi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "Elektron tijoratni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3724-son Qarori. Toshkent sh. 2018-yil 14-may. www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyevning "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6079-son Farmoni. Toshkent sh. 2020-yil 5-oktabr. www.lex.uz.
3. S. N. Xamrayeva "O'zbekistonda elektron savdo va elektron tijoratni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari" Innovatsion iqtisodiyot / 4.Инновационная экономика / The Innovation Economy №1. 2023.
4. Sunnatullo Do'stov va boshqalar "Raqamli iqtisodiyot sharoitida biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarb muammolari" <https://cyberleninka.ru/article/n/234>.